

**“O‘zAuto-Austem” MChJ qo‘shma korxonasining 2021-yil 20-apreldagi 41 AF-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish to‘g‘risidagi Nizom doimiy komissiyasining yig‘ilishi**  
**№ -001-sonli B A Y O N I**

2024-yil 23-yanvar

Andijon shahri

Yig‘ilishni olib boruvchi:

Komissiya raisi:

B.Samatov – bosh direktor,

Bayonnoma yurituvchi:

N.Jalilov – xodimlar bilan ishlash bo‘limi yetakchi mutaxassisi

Yig‘ilishda ishtirok etganlar:

Komissiya a‘zolari

**Kun tartibida:**

**Korxonaning buxgalteriya hisobi bo‘limi buxgalter (*materil bo‘yicha*) lavozimiga <http://uzautojobs.uz> sayti orqali berilgan e‘lon bo‘yicha tanlovda ishtirok etish uchun buyurtma rasmiylashtirgan fuqarolar orasida tanlov o‘tkazish va lavozimga mos nomzodni tanlab olish.**

**Masala yuzasidan ESHITILDI: L.Muxaryamov – Bosh direktorning birinchi o‘rinbosari:**

Korxonaning 2021-yil 20-aprelda tasdiqlangan Xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq buxgalteriya hisobi bo‘limi buxgalter (*materil bo‘yicha*) lavozimiga belgilangan tartibda nomzod tanlab olishda fuqaroning mehnatga bo‘lgan layoqati, ish haqiga oid vazifalar to‘g‘risida tushunchasi bo‘lishi, jamoaviy ishlashga yetarli ko‘nikmasi, bilim va salohiyati yuqori darajadiligiga alohida e‘tibor qaratish taklifini berdi.

**SO‘ZGA CHIQDI: D.Rasulov – Xodimlarni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i.**

U o‘z so‘zida yuqoridagi qayd etilgan fikrlar bo‘yicha komissiya qabul qiladigan qarorlarni haqqoniyligini ta‘minlash maqsadida barcha hujjatlarni to‘liq o‘rganib chiqish zarurligini bildirib, tanlovda o‘z fikr-mulohazalar bildirib o‘tdi.

Shuningdek, <http://uzautojobs.uz> sayti orqali berilgan e‘lon bo‘yicha o‘tkazilgan suhbatga (imtihonga) yoshi, ish staji e‘lon talablariga mos kelgan fuqarolar qabul qilinganligi, qolgan fuqarolar talabga javob bermaganligi uchun qabul qilinmaganligi yuzasidan tushunchalar berib o‘tdi.

**SO‘ZGA CHIQDI: M.Akbaraliyev – Komplayens xizmati boshlig‘i.**

U o‘z so‘zida yuqoridagi qayd etilgan fikrlar bo‘yicha komissiya qabul qiladigan qarorlarni haqqoniyligini ta‘minlash maqsadida tanlov o‘tkazishda manfaatalar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, u yoki bu tomon manfaatlarini hisobga olmaslik, tanlov shaffof va to‘g‘ri o‘tkazilishini taminlash zarurligi, tanlov bo‘yicha qabul qilinadigan shaxs tanlov talablariga to‘liq javob berish lozimligi to‘g‘rida tushunchalar berib o‘tdi.

O‘tkazilgan suhbat natijasi bo‘yicha, komissiya masalani atroflicha muhokama qilib,



## QAROR QILADI:

1. Tanlovda ishtirok etishga hoxish bildirgan fuqarolarning tanlov bo'yicha ro'yxati ilovaga muvofiq qabul qilinsin.

2. Tanlov natijalari bo'yicha komissiya suhbatidan o'tgan va nomzod talablariga mos deb tanlangan fuqaro Aripova Mayramxon Xusanovna 2024-yil 23-yanvar kundan boshlab 3 oylik sinov muddati bilan ishga qabul qilinsin.

3 Yig'ilish bayonini ijrosini nazorat qilish bosh direktorining birinchi o'rinbosari L.Muxaryamovga yuklatilsin.

Komissiya raisi:



B.Samatov

A'zolari:



L.Muxaryamov

Sh.Isomutdinov

M.Akbaraliyev

D.Rasulov

X.Xolmirzayev

Bayonnoma yurituvchi:



N.Jalilov